UDK:93 (93/94:930)

MUSTAQILLIK DAVRIDA ZIYOLILARNING IJTIMOIY FAOLLIGINI RAG‘BATLANTIRISH SIYOSATI

Alixanov Muxammadjon Maxammadsoliyevich, *t.f.n., dotsent,*
“Ijtimoiy fanlar” kafedrasi,
E-mail:alixanov_muxammadjon1977@gmail.com
Namangan davlat texnika universiteti

Annotatsiya: *1991 yil 31 avgustda mustaqillikka erishgach, O‘zbekiston demokratik huquqiy davlatni barpo etish hamda jahon hamjamiyatida o‘z o‘rnini mustahkamlashni ustuvor vazifa sifatida belgiladi. Ushbu rivojlanish jarayonining muhim tarkibiy qismi sifatida ziyolilar olimlar, pedagoglar, yozuvchilar va san’atkorlarni qo‘llab-quvvatlash hamda ularning faoliyatini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratildi. Davlat tomonidan mafkuraviy cheklovlarni bartaraf etish, ijod erkinligini ta’minlash, milliy madaniyat va fan sohalarini rivojlantirishga qaratilgan muhim islohotlar amalga oshirildi. Ilmiy va ijodiy erkinlikni kafolatlovchi huquqiy asoslar yaratildi. Yillar davomida davlat tomonidan turli mukofotlar joriy etildi, ish haqlari oshirildi hamda ziyolilarning mehnatini e’tirof etish va rag‘batlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratildi.*

Abstract: *after gaining independence on August 31, 1991, Uzbekistan prioritized building a democratic legal state and strengthening its position in the global community. A critical component of this development was the support and advancement of intellectuals scientists, educators, writers, and artists. The Uzbek government implemented significant reforms to remove ideological restrictions, ensure creative freedom, and develop national culture and science. Legal guarantees were established for academic and artistic freedom. Over the years, the state introduced various awards, raised salaries, and created opportunities to recognize and encourage intellectual contributions.*

Аннотация: *после обретения независимости 31 августа 1991 года Узбекистан определил приоритетной задачей построение демократического правового государства и укрепление своих позиций в мировом сообществе. Важнейшей составляющей данного процесса стало всестороннее поддержание и развитие интеллигенции — учёных, педагогов, писателей и деятелей искусства. Государством были реализованы значительные реформы, направленные на устранение идеологических ограничений, обеспечение свободы творчества, развитие национальной культуры и науки. Были созданы правовые гарантии академической и художественной свободы. В последующие годы государство учредило различные награды, повысило уровень заработной платы, а также создало условия для признания и поощрения интеллектуального труда.*

Kalit so‘zlar: *O‘zbekiston mustaqilligi, ziyolilar, davlat siyosati, ijod erkinligi, ta’lim islohotlari, fan va madaniyat, milliy mukofotlar, o‘qituvchilarni qo‘llab-quvvatlash, ilmiy muassasalar, inson kapitalini rivojlantirish.*

Keywords: *Independence of Uzbekistan, intellectuals, state policy, creative freedom, education reform, science and culture, national awards, teacher support, academic institutions, human capital development.*

Ключевые слова: *независимость Узбекистана, интеллигенция, государственная политика, свобода творчества, реформы образования, наука и культура, национальные награды, поддержка учителей, академические учреждения, развитие человеческого капитала.*

Kirish. 1991-yil 31-avgustda O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erish-di. Mustaqillikni har tomonlama mustahkamlash, bozor munosabatlariga asoslangan demokratik huquqiy davlat qurish, shuningdek, jahon hamjamiyatiga qo‘shilish va ular orasida o‘zining

munosib o‘rniga ega bo‘lish mamlakat oldida turgan ustuvor vazifalardan biridir. Mamlakat taraqqiyotida ilm-fan va uni rivojlantiruvchi ziyolilar faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Shu maqsadda istiqlolning dastlabki kunlaridan respublika hukumati bu masalaga alohida e’tibor qaratdi. Bu borada Prezident I.A. Karimov “Bugun biz mustaqil davlat quryapmiz. Ilmu fan taraqqiyoti biz uchun eng ustuvor yo‘nalishlardan biridir. Bu sohada xizmat qiladigan odamlarning saviyasi, obro‘si haqida g‘amxo‘rlik qilishimiz, ularning hayotimizga qo‘shadigan hissasiga qarab e’tibor berishimiz shart”, deb ta’kidlaydi.

Usullar. Sovet tuzumi va mustaqillik davridagi ziyolilar faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha davlat tomonidan amalga oshirilgan tadbirlar bir-biridan farq qiladi. Ularning ijodidagi erkinlik darajasi, ta’lim va kadrlar tayyorlash sohasidagi tub islohotlar, milliy va umuminsoniy madaniyatga nisbatan davlat siyosati, ziyolilar mehnatini taqdirlash va boshqa masalalarda bu yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Natijalar. Mustaqillikning birinchi kunlaridayoq davlat tomonidan ziyolilar ijodiy faoliyatiga to‘sqinlik qiluvchi partiyaviy cheklashlarga barham berildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1991-yil 17-sentyabrda “Respublikada davlat hokimiyati va boshqaruv idoralarini hamda xalq ta’limi sistemasini partiyadan holi etish to‘g‘risida”gi Farmoni [1] buning uchun huquqiy asos vazifasini bajardi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 42-moddasida “Har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga g‘amxo‘rlik qiladi”, deb ta’kidlab o‘tilgan [2].

Mustaqillik yillarida davlat tomonidan ziyolilarga ijod erkinligining yaratilishi natijasida bir qator ilmiy, badiiy, san’at asarlari yaratildi. Falsafada materialistik qarashlar hukmronligiga chek qo‘yilib turli oqimlar, g‘oyalar, shu jumladan Sharq va Islom falsafasi chuqur o‘rganilmoqda. Tarixchilar tomonidan Markaziy Osiyo va O‘zbekiston tarixini xolisona tadqiq etilgan ilmiy asarlar yaratildi. Badiiy adabiyotda, ayniqsa, turli janrlar shakllanib, milliylik ruhi bilan sug‘orilgan yangi, tarixiy, detektiv, fantastik roman, qissa, hikoya, she’r va dostonlar yozildi. Bu jarayonlarni davlat kuchli nazorat, qat’iy belgilangan yo‘nalishlar bilan emas, rag‘batlantirish orqali qo‘llab-quvvatlayapti. Jumladan, milliy madaniyat va ma’naviy meros muammolarini tadqiq etganliklari uchun A.K.Valiyev, G.A.Pugachenkova, X.P. Po‘latov, M.M. Xayrullayev, S.Sh. Shermuhammedov, E. Yusupovlarga, adabiyot tarixi sohasidagi ilmiy izlanishlari natijasida “O‘zbek adabi-yoti tarixi”(darslik)ni yaratganliklari uchun A.X.Xayitmetov, A.X.Abdug‘a-furov, S.G‘.G‘aniyeva, Ya.Isoqov, E.A.Karimov, A.Qayumov M.R.Mirzaahmedo-va, S. Erkinovlarga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992 yil 4 maydagi farmoni bilan Abu Rayhon Beruniy nomidagi O‘zbekiston Respublikasining Davlat mukofoti berildi[3]. O‘zbek adabiyoti va she’riyatini rivojlantirishdagi munosib hissalarini hisobga olib Abdulla Oripovga “Munojot” saylanma she’riy kitobi, Shukrullo “Kafansiz ko‘milganlar” xotira romani, Barot Boyqobilov “Navoiynoma” chor kitobi uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994-yil-4 fevraldagi farmoniga muvofiq Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Respublikasining Davlat mukofoti [4], Tog‘ay Murod “Otamdan qolgan dalalar” romani uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994 yil 3 dekabrdagi farmoniga muvofiq Abdulla Qodiriy nomidagi O‘zbekiston Respublikasining Davlat mukofoti bilan taqdirlandilar [5]. Said Ahmad “Do‘stlik” (1995 yil), “Buyuk xizmatlari uchun” (1997 yil), Ozod Sharofiddinov “Buyuk xizmatlari uchun” (1999 yil), Murod Muhammad Do‘st “Mehnat shuhrati” (1999 yil) ordenlari bilan mukofotlandilar.

Davlat tomonidan milliy san’atni rivojlantirishga hissa qo‘shayotgan ziyolilar faoliyatini takomillashtirish va mehnatini taqdirlashga alohida e’tibor qaratildi. Istiqlolni tarannum etuvchi qo‘shiq, musiqa, san’at va me’morchilik sohasidagi asarlari uchun Sh. Jo‘rayev, B. Jalolov, S. Sutyagin, S. Mo‘minov, M. Fozilov (1991 yil) Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Respublikasining Davlat mukofoti bilan [6], I. Jabborov va K. Jabborov Toshkent shahrida o‘rnatilgan Amir Temur haykali, L. Abdullayev “Zamondoshlarim” mavzuidagi rang-tasvir asarlari hamda o‘zbek adiblari kitoblariga ishlangan rasmlar turkumlari, A. Mirzayev Abdulla

Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romaniga bag‘ishlangan suratlar albomi uchun (1994 yil) Abdulla Qodiriy nomidagi O‘zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti, M. Bafoyev “Ulug‘bek burji”, “Nodira”, “Moziydan nur” televizion baletlari musiqasi, A. Nazarov istiqlol ruhi bilan yo‘g‘rilgan qo‘shiqlar va musiqalar turkumi uchun (1997 yil) Abdulla Qodiriy nomidagi O‘zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti bilan taqdirlandilar [7].

Respublikada teatr va musiqa san’atini yanada rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish maqsadida Prezident farmoni bilan 1995 yil 1 noyabrdan boshlab teatr-konsert tashkilotlari artistlari va badiiy xodimlari teatr va musiqa san’ati ijodiy kadrlarini tayyorlovchi o‘quv muassasalarining professor-o‘qituvchilari va konsertmeystrlari uchun maoshga nisbatan har oylik taqdirlash puli (50 foizgacha) belgilandi [8]. O‘zbekistonda musiqa va raqs san’atini davlat yo‘li bilan rivojlantirish maqsadida Prezident farmoni bilan “O‘zbeknavo” gastrol-konsert birlashmasi tashkil etildi [9]. Unga O‘zbekiston xalqining milliy mumtoz va zamonaviy musiqa hamda raqs san’atining eng yaxshi yutuqlarini rivojlantirish, asrash va targ‘ib qilish vazifasi yuklandi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 12 iyuldagi Qaroriga muvofiq “O‘zbekkino” davlat-aksionerlik kompaniyasi tashkil etildi hamda uning faoliyatini takomillashtirish masalalari ishlab chiqildi [10]. Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Madaniyat ishlari vazirligi hamda Aloqa vazirligiga “O‘zbekkino” davlat-aksionerlik kompaniyasi uchun shartnoma asosida kadrlar tayyorlash vazifasi yuklatildi.

Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy-madaniy hayotining mu-him tarmog‘i ta’lim tizimini rivojlantirish O‘zbekistonda Konstitutsiya va “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun bilan kafolatlandi. O‘zbekiston Respub-likasi Oliy Kengashining 1992 yil 2 iyuldagi qaroriga asosan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni amalga kiritildi [11].

Sovet hukumati milliy kadrlar tayyorlash masalasida noto‘g‘ri siyosat olib borganligi sababli, jahon andozalariga javob beradigan mutaxassis-larni tayyorlovchi ilmiy o‘quv muassasalari asosan markazda joylashgan, oqibatda ittifoqdosh respublikalarda noyob ixtisoslikka ega mutaxassis kadrlar yetishmasligi muammosi kelib chiqqan.

Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq bunday holatlarga chek qo‘yish maqsadida bir qator o‘quv yurtlarining maqomi, dasturlari va ta’lim uslublari butunlay o‘zgartirildi. Shu paytgacha bo‘lmagan eng zarur ixtisosliklar bo‘yicha alohida zamonaviy universitet va institutlar, jumladan, O‘zbekiston Davlat jahon tillari universiteti, Jahon iqtiso-diyoti va diplomatiya universiteti, Samarqand davlat chet tillari insti-tuti, Mudofaa vazirligi qoshida Harbiy akademiya, Ichki ishlar vazirligi qoshida Ichki ishlar akademiyasi, Bank moliya akademiyasi, Toshkent aviatsiya instituti, Navoiy tog‘-konchilik instituti kabi o‘nlab yangi o‘quv muassasalari tashkil etildi [12]. Viloyatlarda ham yangi o‘quv yurtlari tashkil etildi. Prezidentning 1992 yil 28 fevralda “Respublikaning yangi oliy o‘quv yurtlarini tashkil qilish to‘g‘risida”gi Farmoniga binoan 8 ta viloyatdagi pedagogika institutlariga Universitet maqomi berildi [13].

O‘zbekistonda ta’lim tizimini isloh qilish jarayonida chet davlatlar bilan hamkorlikda litsey va gimnaziyalar vujudga keltirildi. Bulardan maqsad xalqni ma’rifatli, jahon ilm-u fanidan, madaniyatidan xabardor qilish edi.

Prezident I.Karimov ta’lim tizimini isloh qilish borasida: “Ta’lim tizimimiz jahon sivilizatsiyalarining ilg‘or yutuqlaridan va xalqimizning tarixiy ildizlaridan ajrab qolgan edi. Bu ahvolni tubdan o‘zgartirish lozim. Aksini olganda xalqimizning aqliy boyliklarini, jahon fani va madaniyatining eng yaxshi yutuqlarini o‘ziga singdirib oladigan yangi avlodni kamol toptirish kerak bo‘ladi”, – deb ta’kidlashi ma’naviy yetuk yoshlarni tarbiyalashga qaratilgan [14].

1992–1993-o‘quv yilidan boshlab Oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlariga talabalarni qabul qilish jahonning ilg‘or mamlakatlari tajribasidan kelib chiqqan holda test sinovlari asosida amalga oshirilmoqda.

Endilikda o‘quvchilar, talabalar, ustozlar hamda ko‘plab mutaxassis kadrlar jahonning turli rivojlangan mamlakatlarida o‘qib o‘z malakalarini oshirmoqdalar. Bu borada O‘zbekiston

Respublikasi hukumati hamda “Umid”, “Ustoz” va boshqa jamg‘armalar xizmatlari katta ahamiyatga ega bo‘ldi.

Oliy Majlisning 1997 yil 29 avgust kungi IX sessiyasida O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni (yangi tahrirda) va “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” qabul qilindi [15].

Muhokamalar. Pedagog xodimlarini respublika hukumati tomonidan moddiy va ma’naviy jihatdan taqdirlash ular faoliyatini takomillashtirishda mu-him ahamiyat kasb etmoqda. Prezident farmoni bilan 1992 yil 8 yanvarda Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti va Moliya instituti, 1992 yil 14 dekabrda Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti va Namangan davlat universiteti, 1993 yil 15 martda Qo‘qon Davlat pedagogika instituti, 1994 yil 7 dekabrda Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti, 1994 yil 30 noyabrda Nukus davlat pedagogika instituti, 1995 yil 14 sentyabrda Toshkent davlat universiteti xodimlari orden, medal, faxriy tunvon va yorliqlar bilan mukofotlandilar. Shuningdek, har yili Mustaqillik bayrami arafasida ta’lim-tarbiya tizimida alohida o‘rnak ko‘rsatayotgan xodimlarni taqdirlanmoqda.

Davlat tomonidan bozor munosabatlariga o‘tish davrida ziyolilarni ijtimoiy himoya qilish maqsadida 1992 yil 1 yanvardan xalq ta’limi, sog‘liqni saqlash, madaniyat, fan muassasalari xodimlarining ish haqini 1991 yilga nisbatan 2 barobarga ko‘tarildi [16]. 1992 yil 5 fevraldagi Prezident Farmoniga asosan oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlarining professor-o‘qituvchilari, ilmiy xodimlariga qo‘shimcha imtiyoz berish maqsadida ular yashab turgan davlat va idoralarga qarashli uylar bepul shaxsiy mulk qilib berildi va kommunal xizmatlar uchun haq to‘lashdagi imtiyozlar belgilandi.

Xulosa. Ta’lim tizimidagi ziyolilarning faoliyatini moddiy jihatdan taqdirlash bilan birgalikda ularni ma’naviy tomondan qo‘llab-quvvatlash maqsadida, malakali mutaxassislarni tayyorlashda o‘qituvchilar va tarbiyachi pedagoglarning xizmatlari hamda mavqeini inobatga olib 1993 yil oktyabr oyining birinchi yakshanbasi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi xodimlari kuni” etib belgilandi. 1994 yil 28 sentyabrda ushbu bayram munosabati bilan “Respublika xalq ta’limi sohasida alohida o‘rnak ko‘rsatayotgan xodimlarni taqdirlash to‘g‘risida”gi Prezident Farmoni asosida 98 nafar tizim xodimi O‘zbekiston Respublikasining orden, medal va faxriy unvonlar, 40 nafari esa O‘zbekiston Respublikasining Faxriy yorliqlari bilan mukofotlandi. 1994 yil 1 oktyabrdan umumta’lim maktablari o‘qituvchilarining mehnat haqi 20 foizga oshirildi. Xalq ta’limi muassasalari pedagog xodimlarining moddiy sharoitini yaxshilash va ularning mehnatini rag‘batlantirish maqsadida 1997 yil 20 avgustdagi Vazirlar Mahkamasining Qarori bilan 1997 yil 1 sentyabrdan boshlab umumta’lim maktablari va barcha tur hamda nomdagi maktab internatlarning o‘qituvchilari, o‘rta maxsus va hunar-texnika o‘quv yurtlari muallimlari uchun 20 foizdan 50 foizgacha tabaqalashtirilgan holda qo‘shimcha haq belgilandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси.1991. - №11.–Б. 10.
2. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 2003. – Б. 10.
3. Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси.–1992. – № 7.–Б. 4.
4. Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси. 1994. – № 2.–Б. 54.
5. Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси. – 1994. – № 11-12. – Б. 80-81.
6. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси. – 1995. – № 10-11. – Б. 42-43.
7. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси. – 1996. –№ 4.– Б.4-5.
8. «Ўзбеккино» давлат-акционерлик компаниясини ташкил этиш ва унинг фаолиятини такомиллаштириш масалалари тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Вазирлар

Маҳкамасининг Қарори. 1996 йил 12 июль // Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг Қарорлари тўплами. – 1996. – № 7. – Б. 2-6.

9. Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси. – 1992. – № 9. – Б. 45-58.

10. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Мустақил Ўзбекистон тарихи. 3-жилд. ... – Б. 415.

11. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Республиканинг янги олий ўқув юртларини ташкил этиш тўғрисида»ги Фармони // Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси. – 1992. – № 4. – Б. 60-61.

12. Каримов И. Истиқлол ва маънавият. – Т.: Ўзбекистон, 1994. – Б. 68.

13. Ўзбекистон Республикасининг Таълим тўғрисидаги Қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси. – 1997. – № 9. – Б. 10-19.

14. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Эркин нарх белгилаш муносабати билан аҳолини ижтимоий ҳимоя қилишга доир тадбирлар тўғрисида»ги Фармони // Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси. – 1992. – № 2. – Б. 89-90.

15. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Умумтаълим мактаблари ўқитувчиларининг мехнатини рағбатлантиришга оид тадбирлар тўғрисида»ги Фармони // Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси. – 1994. – № 10. – Б. 55.

16. Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг Қарорлари Тўплами. – 1997. – № 8. – Б. 20-21.